



UDK:811.512

Komila UMAROVA,
Alfraganus universiteti o'qituvchisi
E-mail:umarovakomila1983@gmail.com

PhD U.Kuchimov taqrizi asosida

ARTISTIC EXPRESSION OF THE MOTIF OF LIGHT AND DARKNESS IN THE WORLD LITERATURE

Annotation

This article studies the specific role of the motifs of light and darkness in world literature, their archetypal and metaphysical significance, and their artistic function in a work of art from a scientific perspective. The interpretation of this motif is assessed from a semiotic and philosophical perspective, the artistic depiction of light and darkness in Western and Eastern literary traditions. Based on scientific and literary sources, the universal and archetypal nature of this motif is substantiated.

Key words: Light, darkness, motif, archetype, dualism, opposition, artistic symbol, metaphor, depression, symbolism, spiritual uplift, destruction, modernism, semiotics, metaphysical symbols.

DUNYO ADABIYOTSHUNOSLIGIDA YORUG'LIK VA ZULMAT MOTIVINING BADIY IFODASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon adabiyotida yorug'lik va zulmat motivlarining o'ziga xos o'rni va arxetipik va metafizik ahamiyati, badiiy asardagi badiiy funksiyasi ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Mazkur motiv tajliliga G'arb va Sharq adabiy an'analarda yorug'lik va zulmatning badiiy tasviri semiotik va falsafiy nuqtai nazardan baho beriladi. Ilmiy-adabiy manbalarga asoslangan holda, mazkurmotivning universal vaarxetipiktabiatiasoslabberiladi.

Kalit so'zlar: Yorug'lik, zulmat, motiv, arxetip, dualizm, qarama-qarshilik, badiiyramz, metafora, ruhiy tushkunlik, simvolizm, ruhiy yuksalish, halokat, modernizm, semiotika, metafizik timsollar.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ МОТИВА СВЕТА И ТЬМЫ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В статье исследуется специфическая роль мотивов света и тьмы в мировой литературе, их архетипическое и метафизическое значение, а также их художественная функция в произведении искусства с научной точки зрения. Оценивается интерпретация этого мотива с семиотической и философской точки зрения, художественное изображение света и тьмы в западных и восточных литературных традициях. На основе научных и литературных источников обосновывается универсальная и архетипическая природа этого мотива.

Ключевые слова: Свет, тьма, мотив, архетип, дуализм, оппозиция, художественный символ, метафора, депрессия, символизм, духовный подъем, разрушение, модернизм, семиотика, метафизические символы.

Kirish. Dunyo adabiyotshunosligida motiv tushunchasi va uning nazariy asoslari mifologiya, strukturalizm, psixoanaliz kabi doiralarda keng o'rganilgan. Motiv so'zi lotincha – “motus” – “harakatlantiraman” [1], fransuzcha “motif” – kuy, ohang [2], inglizcha “motive” – qo'zg'atuvchi omil [3], undash ma'nolarini anglatadi. U adabiy asarda takrorlanuvchi syujet, obraz, harakat yoki holat hisoblanadi. Motiv adabiyotshunoslikdagi eng muhim poetik elementlardan biri bo'lib, u real voqealar yoki mifologik modellar asosida shakllanishi mumkin. Motiv badiiy asarning poetik tuzilmasidagi asosiy dinamik element sifatida, syujet, obraz va mavzu kabi omillar bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bu tushuncha ilk bor folklorshunoslik vamifologiya doirasida ilmiy termin sifatida shakllangan. Motivning syujet, holat va obraz bilan bog'liq ko'plab turlari mavjud. Ular orasida yorug'lik va zulmat motivi nafaqat estetik, balki inson ma'naviyati va axloqiy dunyoqarashini ifodalashga xizmat qiluvchi semiotik vosita sifatida namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Ushbu dualistik motiv tarixi qadim mifologiyadan tortib zamonaviy postmodern adabiyotigacha badiiy ifodasini topgan. Yorug'lik – ma'rifat, yaxshilik, ilohiy nur, hidoyat ramzi bo'lsa, zulmat – jaholat, yovuzlik, halokat ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada ushbu motivlar badiiy matnda qay

tarzda yuzaga chiqishi, qanday ma'no anglatishi va arxetipik ramz sifatida qanday vazifa bajarishi tahlil etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotni yozishda qiyosiy-tarixiy, psixoanalitik, semiotik, intertekstual tahlil usullari va falsafiy yondoshuvlar qo'llanildi. Jahon va o'zbek adabiyoti namunalari nazariy qarashlarni ifodalash uchun manba sifatida keltirildi.

Psixoanalitik Carl Gustav Yungning arxetiplar nazariyasiga ko'ra yorug'lik va zulmat – faqat real voqelikdagi tabiiy hodisalar emas, balki inson psixikasining arxaik va universal strukturasidir [4]. Ularning o'zaro qarama-qarshiligi nafaqat yaxshilik va yomonlikni tushunishimizda, balki individuatsiya(shaxsning ichki butunlik sari yo'nalgan ruhiy taraqqiyoti) [5] jarayonida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yorug'lik – ong, o'zlik, aql va ruhiy uyg'onish belgisi bo'lsa, zulmat – “soya” (shadow) arxetipi bilan bog'liq holda inson o'zida tan olmaydigan, siqib chiqarilgan, lekin kuchli psixik energiyaga ega jihatlar majmuasidir. Yungga ko'ra, inson shaxsi bu ikki kuchning doimiy muvozanat va kurashi orqali shakllanadi. Agar faqat yorug'likka intilish bo'lsa, inson o'z “soya”sini inkor etadi va shu bilan ruhiy muvozanat yo'qoladi. Aksincha, zulmatni anglash va uni ongga olib chiqish bu shaxsiy rivojlanish, ichki butunlikka erishish yo'lidir. “One does not become enlightened by imagining figure so flight, but

by making the darkness conscious.” (Инсон ёруғлик ҳақида тасаввур қилиб эмас, балки зулматни англаб олга чикариш орқали маърифатга эришади) [4]. Ko'rinib turibdiki, yorug'lik va zulmat motivi badiiy olamdagina qarama-qarshilikda kelmaydi. U inson rihiyati, tafakkurida ham shu tarzda voqelanadi. Qadimiy dinlar va miflarda yorug'lik va zulmat tushunchalari nafaqat real voqelikni, balki inson tafakkurining, axloqiy ongining va ruhiy dunyosining ajralmas ikki qutbli tizimini anglatadi. Bu dualistik qarash insoniyat tarixida chuqur ildiz otgan bo'lib, ezgulik va yovuzlik, ongliklik va ongsizlik, haqiqat va yolg'on, yartish va halokat kabi asosiy g'oyaviy qarama-qarshiliklarning asosida yotadi. Markaziy Osiyo, Eron hududida qadimda keng tarqalgan Zardushtiylik dini aynan ushbu dualistik dunyoqarashga asoslangan bo'lib, u ezgulik ilohi — Ahura Mazda va yovuzlik ilohi — Axriman o'rtasidagi abadiy kurashni asosiy g'oya sifatida ilgari suradi [6]. Bizga yaxshi ma'lumki, Ahura Mazda — nur, hayot va haqiqat manbai, Axriman esa zulmat, yolg'on va halokat ramzidir. Bu qarama-qarshilik keyinchalik badiiy asarlarda ham asosiy g'oyaviy motivlardan biri sifatida xizmat qilgan.

Qadimgi Misr mifologiyasida quyosh ilohi Ra har kuni tun zulmatida ilon Apop (Apophis) bilan kurashadi. Bu — nur va zulmat o'rtasida giarxetipik dramatik to'qnashuv bo'lib, inson ongida har doim mavjud ichki kurashlarni ifodalaydi. Ra ong, hayot, uyg'onish timsoli bo'lsa, Apop - ongsizlik, va halokat obrazidir [7]. Hind mifologiyasida ham yaratuvchi kuch Brahma va uni qarshisidagi yovuz iloh Kali o'rtasidagi kurash — hayot va o'lim, kosmos va kaos o'rtasidagi chuqur arxetipik to'qnashuvni bildiradi. Kali – zulmat timsoli. Kali motive Sharq adabiyotida ko'pincha vahshiylik manbai bo'lgan ayol obrazlar orqali aks ettirilgan. Yunon mifologiyasida Apollon — nur, aql, san'at va tartib ilohi bo'lib, unga qarama-qarshi Dionis - kaos, extiros, mastlik ilohidir [8].

Tahlil va natijalar. qarama-qarshilik adabiyotda olamdab ezgulik va yovuzlikning mangu kurash ramzi sifatida ifodalanadi. Adabiyotshunos Bynydicte Lemmelijnning “Yorug'lik va zulmat: voqelikdan adabiyotga” (Light and Darkness: From Reality to Literature) nomli ilmiy maqolasida yorug'lik va zulmat motivining metafizik, diniy va adabiy qatlamlari tadqiq etiladi. Maqolada muallif ushbu ikki arxetipik timsolning dastlabki manbai real hayotdagi tajriba — biologik ko'rish va boshdan kechirishdan kelib chiqqani, ammo tarixiy-diniy tafakkurda, ayniqsa “Injil” matnlarida murakkab metafizik ma'nolarga ega bo'lganini asoslaydi [9]. B. Lemmelijnning asosiy da'vosi shuki, yorug'lik va zulmat nafaqat fizik hodisalar, balki axloqiy, diniy va madaniy belgilar bo'lib shakllanadi. Uningcha “Injil” da yorug'lik – hayot, najot, ilohiy haqiqat ramzi, zulmat esa – o'lim, gunoh, rad etish timsolidir. Diniy matnlarda ziddiyatli, ammo abstrakt metafora sifatida ijobiy- salbiy qutblarni aks ettiradi. Bu dualizm keyinchalik adabiyotga ko'chgan holda, xilma-xil janr va poetik tizimlarda turlicha metaforik fazifani bajaradi. Mifologiyadan tortib, bugungi zamonaviy adabiyotgacha yorug'lik va zulmat antagonizmi insoniyatning ichki qarama-qarshiligi va ekzistensial muammolari timsoliga aylangan. Lemmelijn maqolasining ahamiyatli jihati shundaki, u metaforik fikrlashning ontologik ildizlarini ochib beradi: real hayotdan diniy manbalarga, u yerdan esa badiiy matnga o'tuvchi simvolik evolyutsiyani izchil kuzatadi. Shuningdek, muallif “yorug'lik”ni har doim ezgulik belgisi deb qarashga qarshi turib, uning ko'r-ko'rona ma'rifat yoki g'ayri insoniy ideallar bilan ham bog'lanishini e'tirof etadi. Bu orqali maqola zamonaviy madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik uchun muhim talqin imkoniyatlarni ochadi.

Ingliz adabiyotshunosi Nicoletta Asciuto. T. S. Eliot ijodida yorug'lik va zulmat motivining falsafiy-estetik talqinini o'rganar ekanyorug'lik va zulmat motiviga nafaqat estetik

vosita, balki falsafiy va ruhiy izlanishning markaziy unsurlaridan biri sifatida qarash lozim deydi [10]. N. Asciuto ga ko'ra, Eliot uchun zulmat bu – zamonaviy insonning ontologik bo'shlig'i, axloqiy nomukammalligi va ijtimoiy zarbalar timsoli bo'lsa; yorug'lik esa – ma'naviy uyg'onish, ruhiy ilhom va ilohiy haqiqat bilan yuzlashuv timsolidir. Unga ko'ra, Eliot she'riyati zulmat orqali haqiqatni anglashga urinadi. Ayniqsa, “The Hollow Men” she'ridagi “Shape without form, shade without colour...” satrlari zamonaviy dunyoning ichki iztiroblarini aks ettiradi. Bu holat Asciuto tomonidan “Tinimsiz zulma tichra ilohiy haqiqat sari intilish” sifatida talqin qilinadi. Asciuto tadqiqoti Eliotning poetic metaforalari orqasidagi chuqur mistik-falsafiy qatlamlarni ochib beradi. Unga ko'ra, Eliotda yorug'lik hech qachon mutlaq emas – u “Mashaqqatlar bilan topilgan, qisqa davom etadigan va hardoin nisbiy” hodisadir. Bu yondashuv, Eliot she'riyatini nafaqat modernizm doirasida, balki ruhiy-falsafiy tafakkur tizimida ham ko'rishga yo'l ochadi.

Ingliz adibi John Miltonning “Yo'qotilgan Jannat” (Lost Paradise) asarida ijodkor ilohiy nur va shaytoniy zulmatni alohida ramziy fonda taqdim etadi:

“Farewell happy fields,
Where joy forever dwells: hail horrors, hail
Internal world...” [11]

J. Milton bu satrlar orqali Shaytonning jannat nuridan butunlay ajralib, zulmatga tushishini ramziy tarzda tasvirlaydi. “Farewell happy fields” iborasi — Jannatdagi ilohiy nurtimsoli, insoniya tuchun mukammal ezgulik maskani sifatida namoyon bo'lsa, “hail horrors, hail Infernal world” — Shaytonning zulmatiga ishora. Bu satrlarda yozuvchi Shayton obrazi orqali nur-zulmat ixtilofini ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi. Miltonning Shayton orqali keskin kontrast yaratishi, inson tafakkuridagi ixtiloflarni ham aks ettiradi. Jannat va jahannam orasidagi ziddiyat inson tafakkuri, irodasi, erkin fikr va yovuzlik kabi tushunchalarni tushinishga yordam beradi.

Modern adabiyotning mashhur vakili Franz Kafka asarlarida nur va zulmat motivlari yanada chuqurroq namoyon bo'ladi. Kafka ekzistensial qarashlarida zulmat motivini o'rgangan olim Pawel, E. fikricha Kafka qahramonlari – Yosef K. “Jarayon” (“The Trial”) va K. “Qal'a” (“The Castle”) jamiyat bosimi ostida qolib, insoniy sistemada o' o'rnini topishga harakat qilayotgan obrazlardir [12]. Josef K. eng o'ily maqsadga yetish (yorug'lik motive) ga intiladi, biroq bu yo'lda qilgan harakatlari “yaxshilik” emas, balki absurd bilan yakun topadi. “Qal'a” qahramoni esa qishloqdagi (jamiya tramzi) noaniq huquqiy tizim ostida norozilik bilan yorug'likni – orzu qidiradi. Ko'rinadiki, Kafka badiiy dunyosida zulmat g'ayri insoniy tuzumni anglatadi. Nur — bu orzu, ishonch, azob-uzubat chekinishi sifatida yuzaga kelsa, zulmat inson irodasini sindiruvchi absurd muhitdir. Bu ikki motiv Kafka asarlarida yorug'lik-zulmat qarama-qarshiligi orqali insonning ruhiy olamiga chuqur nazar tashlash imkonini beradi. Kafka ushbu motivlarni nafaqa testetik balki ekzistensial – psixologik jihatdan ham ochib beradi. Yuqorida Bynydicte Lemmelijnning “Yorug'lik va zulmat: voqelikdan adabiyotga” maqolasida ushbu ikki motivning “Injil” dagi talqinlariga alohida to'xtalgandek. “Qur'onikarim” da ham ushbu tushunchalar ko'p bora keltiriladi. Hattoki, ushbu muqaddas kitobda “An-Nur” surasi uchraydi. Sharq tasavvuf adabiyotida ham “nur” va “zulmat” tushunchalari ruhiy-ma'naviy ma'nolar tizimini tashkil etadi. Bu dualizm islomiy falsafa, Qur'on ta'limoti va tasavvuf tafakkuri asosida shakllangan bo'lib, unda “nur” — ilohiy haqiqat, ma'rifat, ishq, ruhiy yuksalish va valiylik ramzi sifatida talqin etiladi. Aksincha, “zulmat” — nafs zulmati, g'aflat, hijron, haqiqatdan uzoqlik, johillik va hayvoniy sifatlarining belgisi hisoblanadi. Alisher Navoiy ijodida ushbu dualizm o'ziga xos estetik va ma'naviy teranlikda namoyon

bo'ladi. Uning "Lisonut-Tayr", "Xamsa" kabi asarlarida "nur" tushunchasida idoi mo ilohiy ishq bilan bog'lanib keladi. Isha — bu haqiqatga yetaklovchi nurning timsolidir [13]. Masalan, Navoiy uchun ishq — zulmatni yorug'likka aylantiruvchi kuch, insonni ruhiy g'afatdan uyg'otuvchi metafizik vositadir.

Rus adabiyotshunosi Anna Kazorina o'zining "M. Bulgakovning badiiy olamida yorug'lik va zulmat dualizmi: ontologik-estetik tahlil" (Свет и тьма в художественном мире М. Булгакова) nomli tadqiqotida M. Bulgakov ijodida yorug'lik va zulmat qarama-qarshiligi nafaqat obrazlar tizimi balki butun badiiy olamning ontologik asosini tashkil etishini aytadi [14]. Olima bu dualizmni gnostik, diniy va estetik mezonlar asosida tahlil qiladi. Unga ko'ra, Bulgakov asarlarida yorug'lik va zulmat o'rtasidagi ziddiyat an'anaviy "yaxshilik — yomonlik" opozitsiyasidan ko'ra murakkabroq, ichki metafizik va axloqiy kurashdir. "Usta va Margarita" romanida budualizm ikki asosiy kuch-Iyeshua (nur) va Volland (zulmat) obrazlarida mujassam topadi. Biroq, muallif Kazorina ta'kidlaganidek, bu kuchlar bir-birini rad etuvchi emas, balki biri ikkinchisining mavjudligi orqali ma'no kasb etuvchi tamoyillardir. "Zulmat" bu yerda shunchaki yovuzlik emas, balki haqiqatni yorituvchi "salbiynur" sifatida talqin qilinadi. Volland zulmat elchisi bo'lsa-da, adolat o'rnatadi, jinoyatni jazolaydi. Bulgakovda yorug'lik — ruhiy yuksalish, ma'rifat, muhabbat (Ustava Margarita ishq), iymon timsoli bo'lsa; zulmat — tushunarsizlik, satirik tanqid, biroq ayni paytda, haqiqatni ochuvchi kuch hamdir. Masalan, "Yosh vrach kundaligi" syujetida yorug'lik (lampa, nur) — bilim, tibbiyong, hayotni saqlash vositasi; zulmat esa — o'lim, qo'rquv, aql bova qilmaydigan hodisalarning ramzidir. Biroq aynan zulmatda, "operatsiya xonasida", insonlik sinovdan o'tadi. Kazorinaga ko'ra, Bulgakov estetikasi nafaqat metaforaga, balki ontologik murakkablikka asoslanadi. Yorug'lik va zulmat san'atdagi qarama-qarshilik emas, balki insoniy mohiyatidagi dialektik kuchlar ifodasi sifatida ham xizmat qiladi. Aynan shuning uchun Bulgakov dunyosida zulmatdan yorug'lik tug'ilishi mumkin — bu ma'naviy kurashish nuqtasi bo'lishi mumkin. "Bulgakov nuri — bu shunchaki porlash emas, balki azoblar orqali o'tib kelgan ma'naviy yoritilishdir" [14]. Demak, Bulgakovda tasvirlangan yorug'lik o'quvchini ham falsafiy mushohadaga, ham ruhiy tozalanishga yetaklaydi. Aynan shu jihatlar tufayli Bulgakov asarlaridagi nur va zulmat dialektikasi zamonaviy adabiyotda insoniy mohiyat, ma'naviy o'sish va haqiqat sari yo'nalganlik timsoli sifatida alohida badiiy va falsafiy ahamiyat kasb etadi. Yorug'lik va zulmat motivining jahon poetik va falsafiy tafakkuridagi ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Bu ikki timsol o'rtasidagi qarama-qarshilik — adabiy tafakkurda nafaqat estetik vosita, balki axloqiy, diniy va ruhiy g'oya sifatida shakllanib, o'ziga xos arxetipik tizimga

aylanadi. Bu tizimda nur — ilohiy haqiqat, ma'rifat, ruhiy uyg'onish, hayot, najot, zulmat esa — jaholat, nafsiy g'afat, ongsizlik, halokat, ma'naviy tanazzul ramziga aylanganini kuzatish mumkin. G'arb va Sharq adabiy an'analaridagi turli zamon, makon va madaniy kontekstlarda ushbu motiv o'zgacha semantik qatlamlar bilan boyigan bo'lsa-da, uning asosiy timsollari o'zgarishsiz qoladi. Masalan, Yevropa adiblari uchun yorug'lik — najot va ilohiy adolat, zulmat — rad etilganlik va ichki zulmatning metaforik ifodasi bo'lsa, Sharq adabiyotida — xususan, tasavvufiy dunyo qarashida nur — Allohning tajallisi, ishqiy ilhom, valiylik maqomi; zulmat — nafs, zulmat, hijron, johillik va ruhiy azob belgisi sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan, yorug'lik va zulmat motivi adabiy matnda uch jihatdan namoyon bo'ladi:

Fizik-biologik daraja — yorug'lik va qorong'ilik real muhitda inson sezgi a'zolari orqali idrok qilinadigan hodisa sifatida.

Psixologik-ruhiy daraja — yorug'lik ichki uyg'onish, ichki haqiqatni anglash; zulmat — ichki ziddiyat, tushkunlik va inkor bilan bog'liq ong holati sifatida.

Metafizik-falsafiy daraja — yorug'lik va zulmat mukammal va mutlaq qadriyatlar tizimini ifodalaydigan, ilohiylik va yovuzlik, mavjudlik va bo'shliq, ijobiy va salbiy kuchlarning izchil ziddiyati asosida tashkil topgan timsollar majmuasidir.

Adabiyotda yorug'lik va zulmat motivining uzluksiz ravishda yangilanib borishi ularning mavjudlik, qadriyatlar va insonga xoslik kabi falsafiy masalalar bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Ramziy obraz sifatida bu ikki qarama-qarshi motiv har bir davrning axloqiy, madaniy va ruhiy qiyofasini aks ettiradi. Zardushtiylkda Ahura Mazda va Axriman qarama-qarshiligi, diniy matnlardagi nur va zulmat metaforalari badiiy adabiyotdagi ushbu motivning ontologik universalligi va arxetipik davomiyligini ko'rsatadi [15]. Shu ma'noda, yorug'lik va zulmat motivi — insoniyat ma'naviy tafakkurining belgisi sifatida badiiy tafakkurning turli janrlarida: epos, lirika, drama, zamonaviy roman va postmodernistik adabiyot namunalari yashab kelmoqda. Uning universalligi va metaforik yoki simvolik shaklda turli kontekstlarda qayta-qayta yuzaga chiqishi badiiy adabiyotning inson barkamolligi uchun xizmat qilishini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Yorug'lik va zulmat motivi — jahon adabiyotidagi eng qadimiy va eng serqatlam tizimlardan biridir. U insonning ruhiy, axloqiy va falsafiy kurashini badiiy shaklda aks ettiradi. Ushbu motiv badiiy matndan tashqari arxetip nazariyasi, diniy tafsirlar va falsafiy tafakkur doirasida tahlil etilsa, adabiyotning ontologik va ijtimoiy-madaniy jihatlarini chuqur anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. D. Quronov / Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. (2013) Adabiyotshunoslik lug'ati—Toshkent, Akademnashr, —180b.
2. Hotamov N., Sarimsoqov B. (1979) Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati. —Toshkent, O'qituvchi. —190b.
3. Abrams M.H. A Glossary of Literary Terms. <https://lib.zu.edu.pk/ebookdata/Language%20Linguistics%20and%20Literature/-235p>.
4. Jung C.G. (1969) Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton University Press, —113 p.
5. Jung C.G. AION: Researches into the Phenomenology of the Self. Copyright © 1959 by Bollingen Foundation Inc., New York, N. Y. Published by Princeton University Press Princeton.
6. Boyce, M. (1975). A History of Zoroastrianism, Vol. I. Brill. —P.192.
7. Assmann, J. (2001). The Search for God in Ancient Egypt. Cornell University Press. —P. 105–120.
8. Campbell, J. (1949). The Hero with a Thousand Faces. Copyright © 2004 by Princeton University Press Published by Princeton. —P.45–58.
9. Benedicte Lemmelijn. Light and Darkness: From Reality to Literature//[https://scriptura.journals.ac.za/pub/Scriptura111\(2012:3\),p555-568](https://scriptura.journals.ac.za/pub/Scriptura111(2012:3),p555-568).
10. Nicoletta Ascuto. T. S. Eliot, (2015) Turning Darkness into Light. (PhD dissertatsiyasi, Durham University. —P.13.
11. Milton, John. Lost Paradise. London, (1667). <https://www.gutenberg.org/ebooks/20>. —250 p.
12. Pawel, E. (1984). The Nightmare of Reason: A Life of Franz Kafka. Farrar, Straus & Giroux. —P. 312–328.
13. Bertels E.E. Sufizmipriverskayaliteratura. 1966. https://archive.org/details/sufism_i_sufiyskaya_literatura/page/13/mode/2up
14. Казорина А. Свет и тьма в художественном мире М. Булгакова https://cyberleninka.ru/article/n-svet-i-tma-v-hudozhestvennom-mire-m-bulgakova?utm_source=chatgpt.com
15. Lawrence Kimmel. The Reco The Recovery of Archaic Truth in Literature: Light and Darkness in the Perception of Space in the Human Imagination Trinity University, 2012.